SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 1
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI ZAMONAVIY PEDAGOGIK FIKR G‘OYALARIDAN KREATIV FOYDALANISHGA TAYYORLASH – IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

Akbarova Feruza Uktamjonovna

Qo’qon davlat universiteti 3- kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishida ilgari surilgan mavsu bugungi kundagi zarurat xisoblanadi. Tanqidiy fikrlash, har qanday nostandart vaziyatlarga ijodiy yondashish bilan ta’limning ta’lim oluvchilar oldidagi jozibadorligini oshirish orqali pedagogikada ijtimoilashuvni kuchaytirish muhum talablardan biri ekanligi yoritilganligi bilan ahamiyatlidir. Ish beruvchilarning kadrlar yetishtirib chiqaruvchilar oldiga qo’yayotgan talabiga mos jamoa bilan ishlay oladigan, yangiliklarga tez moslashuvchan, kutilayotgan vaziyatlarni taxlil qila oladigan, muammolarga kreativ yechim bera oladigan yoshlarni tayyorlashdir.

Kalit so‘zlar

Pedagogika, fikr, g’oya, kreativlik, moslashuvchanlik, ijtimoiy, psixologik, xalqaro, tarbiya, tronsformatsiya, ta’lim, ish beruvchi, jamiyat.

KIRISH

Jamiyatda sog’lom fikrli insonlarni tarbiyalashda pedagogning o’rni sezilarli darajada. Globallashuv sharoitida milliy muhitni saqlab qolishning muhim omillaridan biri ham ta’lim beruvchilarning zamonaviy pedagogik fikrlashini rivojlantirish hisoblanadi. Bu shuni ko’rsatadiki ta’lim tronsformatsiyasi paytida kerakli tajribalarni, g’oyalarni va ta’limdagi trendlarni davlat dasturlariga, mahalliy ta’lim sharoitlariga, milliy qadriyatlarga moslab tadbiq etishni anglatadi.

Pedagog o‘z kasbi xususiyati tufayli ishbilarmon, ijodkor va faoliyatini amalga oshirishda mustaqil tanlov qobiliyatiga yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi. o‘qituvchining pedagogik texnologiyalarni loyihalashda shaxsiy hususiyatlarini ishlatish bilan birga zamonaviy fikrlarni pedagogik talqinini namoyon qila olishi kerak.

Shunday qilib, tadqiqotning zaruratidan biri – pedagogik fikrlashga o‘qituvchilarni tayyorlash. Bundan shu muammoni aniqlash mumkinki ta’lim oluvchilarning barchasi ham individual psixalogik qobiliyatlaridan, pedagogik muhitdan kelib chiqqan xolda, yoki amalioy tajribalarni kechirgan tarzda pedagogik yo’nalishni tanlagan deb bo’lmaydi. Aniqlangan ma’lumotlarda keltirilishicha statistika shuni ko’rsatadiki aksariyat talabalar ota onalar tanlovi, vaziyatni baxolash sharoit taqazosi bilan kasb tanlaydilar.

Metadalogiya

V.A. Petrovskiyning o'z-o'zini sabab-oqibat nazariyasi shaxsiyatning mohiyatini, u mavjud bo'lgan "makonlarni" va shaxsiy o'zini o'zi anglashning o'ziga xos mexanizmlarini ochib beradi. Aynan shu faoliyatning o'lchovi quyidagilarni belgilaydi:

— shaxsning hayotdagi turli xil qarama-qarshiliklarni hal qilish qobiliyati;
— "Men-kontseptsiyasining" kuchi;
— inson hayotining tashqi va ichki sharoitlarini nazorat qilish erkinligi darajasi[1]

Amerikalik olim D.Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi” – deb ta’rif beradi.Yana bir AQShlik olim Pol Torrens (1987) kreativlikni tafakkur terminlarida ta’riflab, ijodiy tafakkurni “qiyinchiliklarsiz, muammolar, axborotdagi kamchiliklarni his qilish, shu kamchiliklarni gipotezlar tuzilmasi, ularni tekshirish va baholash, qayta ko‘rish va nihoyat natijalarni umumlashtirish” sifatida tushunadi [2].

Ular ta'lim ijodiy makonini (muhitini) loyihalashtirish mumkin va kerak, deb hisoblashadi. Shunday qilib, ta'lim muhiti o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish vositasi sifatida qabul qilinadi (V.I. Panov). Va iqtidorning uch turi (darajalari) ajratilganligi sababli, bolalarning uch guruhi va shunga mos ravishda ta'lim muhitining uch turi ajratiladi.

Ta'lim makoni ochiqlik va o'z-o'zidan paydo bo'lish, shuningdek, ushbu makon sub'ektlari orasida ijodkorlikka potentsial tayyorlik bilan tavsiflanishi kerak (A.L. Groysman, E. Morozova). D. Morenoning fikriga ko'ra, shaxs bilan sodir bo'ladigan barcha narsalar atrofdagi dunyoga ta'sir qiladi va jamiyatda sodir bo'ladigan narsalar - shaxsning hayotiga ta'sir qiladi. Noan'anaviylik, ijodkorlik va konstruktivlik o'z-o'zidan paydo bo'lish va rol faoliyatining rivojlanishiga hissa qo'shadi. D. Moreno inson psixikasini ko'p qirrali deb biladi, bu inson butun hayot davomida egallaydigan ko'plab potentsial rollardan iborat [3].

Ijodkorlik ko'pincha insonning axloqiy va estetik yaxshilanishi bilan, boshqa hollarda esa fanning rivojlanishi bilan bog'liq. Ijodkorlikni belgilovchi omillar qatoriga ijtimoiy yoki tabiiy-biologik sharoitlar kiradi. Ba'zi nazariyalarda ijtimoiy tabiatga, boshqalarida esa ijodkorlikning shaxsiy va individual tomoniga urg'u beriladi. Ijodkorlikda inson o'zini rivojlantiradi, o'zini yaxlit shaxs sifatida shakllantiradi, ham amaliy, ham ma'naviy-axloqiy yaxshilanishni birlashtiradi

Natija va muhokama

- Yuqoridagilardan shuni ko’rishimiz mumkinki bu islohat va o’zgarishlar keyingi yillardagi ta’limdagi o’zgarishlarga globallashuv va xalqarolashuv jarayonidagi yangiliklarni qabul qilishga nisbatan davr talabini ko’rsatib beradi.

- Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi o’zgarishlar yo’nalishi jamiyatni xar tamonlama rivojlantirish va ta’limni ijtimoiylashuvini ortishiga xizmat qilmoqda. Davlat taraqqiyotini fuqarolarning intelektual salohiyati belgilar ekan bu ta’limga bo’lgan ehtiyojning oshishiga olib keladi.

- Zamon talabiga xos kadrlarni tayyorlash uchun ilgari surilgan pedagogik fikrlar muhim ahamiyat kasb etdi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» 2017-yil 16-

fevraldagi PF-4958-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-mayda «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori muhim ro’l o’ynadi. Bu qaroqni hayotga tadbiq qilish jarayonida ilmiy tadqiqotlarda pedagogik fikrlar taraqqiyotini ko’rishiumiz mumkin. Ilm fanning ta’limdagi ahamiyati, ilg’or pedagogik texnalogiyalarni yaratilishi, ilmiy darajalarni belgilashning o’zgarishi, ta’lim tarbiyadagi muammolar va ularni yechilishiga bag’ishlargan metadalogiya, nazariya va monografiyalarning amalga oshirilishi natijasida pedagogic fikrlar yangicha yo’l kasb etdi.

- Ta’lim tarbiya mazmuni va shaklini o’zgarib borishida milliy g’oya, milliy mafkura va tarixiy tafakkurning uyg’unligi zamonaviy pedagogik g’oyalarni shakillanishida asos bo’lib xizmat qildi. Pedagogika bilimlar sohasidagi tadqiqotlar, o’tkasilgan tajribalar, darslik va kitoblarning mavzusi asosan o’z davridagi dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan islohatlar va o’zgarishlar bilan bog’langan.
- Pedagogikadan adabiyotlar va ilmiy-tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogika nazariyasi va tarixidan muhim muammolarga doir tadqiqot ishlari olib borildi. Lekin aynan mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarning rivojlanishi, uning shart-sharoitlari hamda istiqboldagi yo‘nalishlari mohiyatiga oid ilmiy – tadqiqot ishlari hali deyarli yaratilmagan. Shunga ko‘ra navbatdagi ilmiy-tadqiqotlarda quyidagi yo‘nalishlarni inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir: - pedagogik fikrlar taraqqiyotning tarixiy ildizlarini tahlil etish va ularni ta’lim-tarbiya iste’moliga kiritish yo‘llari, shakl va metodlarni tadqiq etish; - rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim tajribalari, ilg‘or texnologiyalarni Respublikamizda ta’lim jarayonidagi yangiliklar bilan qiyosiy tahlili; - hozirgi davr pedagogik fikrlar taraqqiyoti, innovatsion yo‘nalishlar va ularning istiqboli va h.q [4].
- O’zgarayotgan dunyoda jamiyatimizning yuksak o’rin egallashini va g’oyaviy mafkuraviy poligonlarni domiga tushub qolmaslik uchun siyosiy , iqtisodiy, davlat miqyosida paydo bolayotgan g’oyalardan va shu asosida shakillanayotgan pedagogik fikrlardan foydalanish uchun pedagogik ta’lim jarayonida innavatsion usullar yordamida talabalarni o’qitishning muhimligi ko’rinmoqda.
- Eng qadimgi davrlardan boshlab yaratilgan manbalarda, mutaffakkirlarning pedagogik qarashlarida insonparvarlik tamoyili muhim o’rin tutgan va bu bungi jamitda ham o’z dolzarbligini yo’qotgani yo’q.Mustaqillik davrlarida ta’limiy tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish , olib borishda XX asr boshlarida ilg’or fikrlar bilan maydonga chiqqan jadidlar Abdulla Avliniy, Mahmudho’ja Behbudiy, Ahmad Doinish, Hamza Hakimzoda, Abdulqodir Shakuriy, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat , Munavvar Qori, Avaz O’tar kabi maorif namoyondalaring ilmiy pedagogik me’rosidan hozirda ham baxramand bo’linmoqda. Davr ruhi unda hayot kechirayotgan insonlar ruhiga hamohang o’sib boradi. Zamon talabi shu vaqtda talqil etilayotgan firlar negizidan kelib chiqadi.
- Yangi taxrirdagi ta’lim to’g’risidagi qonun ham dunyo ta’limidagi o’zgarishlar oqibatida ta’lim sohasini yangi bosqichga ko’tirsh munosabati bilan qabul qilindi va yangi taxrirdagi konstitutsiyada xam keltirib o’tilgan.

Xulosa

Yakuniy hulosa qiladigan bo’lsak Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyani yangidan yangi usul va metodlarini o‘z

faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, universal shaxs bo’lishi va bir diplom bir umir qoidasidan vos kechib zamonaviy ko’nikmalarni o’zida shakillantirib undan ta’lim olayotgan shoshlarning hususiyatlariga pedagogik va psixalogik nuqtayi nazardan moslashishi lozimdir. Yaqin kunlardan boshlab o’qituvchi Tashkilotning raqobatbardoshligini ta’minlovchi omil bo‘lib, raqobat kurashida asosiy tayanch vositasi sanalmoqda. Chunki malaka mahorati, ilmiy darajasi, o’ziga va atrofdagilarning rivojlanishiga qo’yayotgan talabiga qarab o’qituvchiga bolgan talab oshmoqda bunday o’qituvchi qayerda bolsa o’sha tashkilotga nisbatan ham ijoboy fikirlar ortib bormoqda . Dunyoda tezlik bilan ommalashib ko’pchilining murojaat ko’lami oshib borayotgan suniy intelekt mukammal bolgan ma’lumotlarni so’rovchiga taqdim qilmoqda bunda yoshlarda oddiy o’qituvchiga nisbatan befarqlikni yuzaga keltirmoqda. Shunday sabablarni oldini olish uchun o’qituvchi har daqiqa bilan hamnafas bolmog’i lozim. Zero Davlatning o‘qituvchiga bo‘lgan munosabati o‘zgargan ekan, endi jamiyatni bu kasb egalariga bo‘lgan munosabatini faqat soha egalarining o‘zi o‘z mehnati bilan o‘zgartira oladi

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Derkach, A.A. Akmeologik tadqiqotlarning metodologik va amaliy asoslari /A.A.Derkach. - M., 1999. – 99- b.

2. Kreativ yondashuv asosida yoshlarda g‘oyalarni generatsiyalash ko‘nikmasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari Rustamov Nazir Choriyevich T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI 1-bosqich tayanch doktoranti https://doi.org/10.5281/zenodo.10679697 “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral 490- bet

3. Axmetova Mariya Nikolaevna. “Talabalarning pedagogik texnologiyalarni loyihalash va amalga oshirishga tayyorligini rivojlantirish” Улан-Удэ – 2006 80- bet

5. Qo’chqorov X.O., Yusupov D.A. Fundamental fanlarni o’qitish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari:

6. Dronova Tatyana Aleksandrovna “ Kasbiy rivojlanishi jarayonida yagonaviy-ijodiy fikrlash uslubini shakllantirish kontsepsiyasi” dissertatsiya. Voronej - 2011 yil.

7. Akram Sohibov “ Pedagogik fikrlar taraqqiyoti” Qarshi "Nasaf" NMIU 2023.